

# JADVAL BILAN ISHLASH

**JADVALNI** yaratish uchun biz juftli teg **<table>...</table>** ni ishlatamiz.

Bu teg **konteyner** vazifasini bajaradi va barcha jadvaldagi **elementlar(ma'lumotlar)** shu konteynerni **ichida** bo'lishi lozim.

| F.I.O   | Ish joyi  | Telefon       |
|---------|-----------|---------------|
|         | Vaqtincha | +998906351001 |
| Nilufar | ishsiz    | +998906351001 |

# TEG <th>...</th>

- <th>...<th> - juftli teg hisoblanib, asosan sarlavha vazifasini bajaradi.
- <th>...<th> - doimo <table>...</table> tegi ichida ishlatiladi.
- Bu tegining <td>...<td> tegidan farqi shundaki, matndagi harflarni **bo`rtirib(жирный)** ko`rsatadi.

```
<table>
  <tr>
    <th>F.I.O</th>
    <th>Ish joyi</th>
    <th>Telefon</th>
  </tr>
</table>
```

|       |          |         |
|-------|----------|---------|
| F.I.O | Ish joyi | Telefon |
|-------|----------|---------|

# TEG <td>...</td>

- <td>...</td> - juftli teg hisoblanib, jadvalda ma`lumotlarni ko`rsatish uchun ishlatiladi.
- <td>...</td> - doimo <table>...</table> tegi ichida ishlatiladi.

```
<table>
  <tr>
    <td>Nilufar</td>
    <td>Vaqtincha ishsiz</td>
    <td>+998906351001</td>
  </tr>
</table>
```

| F.I.O   | Ish joyi         | Telefon       |
|---------|------------------|---------------|
| Nilufar | Vaqtincha ishsiz | +998906351001 |

# JADVALDAGI ATRIBUTLAR

**border** – jadvalga ramka berish uchun ishlatiladi.

| F.I.O   | Ish joyi         | Telefon       |
|---------|------------------|---------------|
| Nilufar | Vaqtincha ishsiz | +998906351001 |

**bordercolor** – ramkaga rang berish uchun ishlatiladi.

| F.I.O   | Ish joyi         | Telefon       |
|---------|------------------|---------------|
| Nilufar | Vaqtincha ishsiz | +998906351001 |

```
<table border="1px" bordercolor="red">
```

- **cellpadding** – ramkani ichida bo`shliq(отступ) hosil qiladi.

| F.I.O   | Ish joyi         | Telefon       |
|---------|------------------|---------------|
| Nilufar | Vaqtincha ishsiz | +998906351001 |

```
<table border="1px" bordercolor="red" cellpadding="10px">
```

- **cellspacing** – jadvalni ichida bo`shliq hosil qiladi.

| F.I.O   | Ish joyi         | Telefon       |
|---------|------------------|---------------|
| Nilufar | Vaqtincha ishsiz | +998906351001 |

```
cellpadding="10px" cellspacing="10px">
```

# Atribut colspan

- **colspan** – atribut hisoblanib, u *yacheykalarni gorizontal bo`ylab birlashtiradi*. Asosan colspan *jadvalni ichida sarlavha yaratish uchun foydalaniladi*.
- Masalan:<td colspan="4">quwimca malumot</td>

| F.I.O                              | Ish joyi         | Telefon       |  |
|------------------------------------|------------------|---------------|--|
| Nilufar                            | Vaqtincha ishsiz | +998906351001 |  |
| Nilufaq haqida qo`shimcha ma`lumot |                  |               |  |

```
<td colspan="3">Nilufaq haqida qo`shimcha ma`lumot</td>
```

# Atribut rowspan

rowspan – atribut hisoblanib, u **yacheykalar ni vertikal bo`ylab birlashtiradi**. Asosan colspan **jadvalni ichida sarlavha** yaratish uchun foydalaniladi.

Masalan:<td rowspan="4">quwimca malumot</td>

HURMAT BILAN *IT Park*